

Qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foylanish sohasidagi ilmiy-amaliy anjuman o‘z ishini yakunladi

2018-yil 26-sentabr kuni ham davom etgan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish: yangi tadqiqotlar, texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanda respublikamizda faoliyat yuritayotgan **“OFTOB-NUR”**, **“Mir-Solar”**, **“Techno future”**, **“StarSolar”** va qator xorijiy ishlab chiqarish korxonalarining zamonaviy quyosh texnologiyalari ko‘rgazmasi tashkil etildi. Shuningdek, ishtirokchilar Katta Quyosh Sandoni noyob obyektiga tashrif buyurishdi va noyob obyekt faoliyati bilan tanishishdi.



Ilmiy-amaliy anjuman ishida **AQSH, Germaniya, Rossiya, Ukraina** davlatlarning qator yetakchi xorijiy ilmiy markaz va ilmiy tekshirish institutlari olimlari, shuningdek, respublikamizda katta quvvatli fotoelektrik stansiyalar qurilishida ishtirok etayotgan **«SkyPower Global»** va **«GRAAES INTERNATIONAL»** kabi yirik investitsion korxonalar vakillari ham qatnashdilar.



Ilmiy-amaliy anjuman yakunida bugungi kunda dolzarb bo'lib turgan qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanishning zamonaviy fundamental va amaliy masalalari, energiyani bir turdan boshqa turga o'zgartirish jarayonlarini modellashtirish, ularning ekologik ahamiyati, sohadagi innovatsion texnologiyalar va OTMlarda soha mutaxassislarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash masalalari bo'yicha qator masalalar muhokama qilindi va taklif-mulohazalar atroficha o'rganib chiqildi va kelajakda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.